

**TA`LIM TIZIMIDA «ASSESSMENT» HAMDA «EVALUATION»
TUSHUNCHALARI VA ULARNING FARQI
(The concepts of "assessment" and "evaluation" in the education system
and their differences)**



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2022-20-170-174>

Pulatova Zulfiya Abduazizovna

Toshkent davlat yuridik universitetining ixtisoslashtirilgan filiali,

Umumta`lim fanlar kafedrası katta o`qituvchisi

e-mail: zulfiya-pulatova79@mail.ru

tel:+99897 4408841

ANNOTATSIYA

Pedagogning faoliyat samaradorligini belgilab beradigan eng muhim omil bu uning pedagogik va baholash mahorati ekanligini aslo unutmasligimiz lozim. Talabalarning olgan bilimlarini baholash esa pedagogdan nafaqatdan xolislikni, balki, juda katta kompetensiyani talab qilishini e'tirof etishimiz lozim. Talabalarning o'zlashtirishini, bo'lajak professional faoliyatini chuqur o'rganayotganligiga amin bo'lgan holda baholash, ularning har tomonlama bilim olishlarini rag'batlantirishning o'zi ham juda katta pedagogik kompetensiyani talab qiladi. Baholash – bu og'zaki yoki yozma muloqot ko'nikmalari qo'llanilishi bilan autentik vazifalarning bajarilishini talab qiladigan, amalga oshirilgan ishlarga asoslanadi. Ushbu maqolada «Assessment» hamda «Evaluation» tushunchalarining o'qitish ta'limotidagi o'rni va farqi yoritib berilgan.

***Kalit so'zlar:** baholash, nazorat turlari, test turlari, ta'lim tizimi, yondashuvlar, assessment, evaluation..*

ABSTRACT

We must never forget that the most important factor that determines the effectiveness of a teacher's work is his pedagogical and evaluative skills. We must recognize that the assessment of students' knowledge requires not only impartiality, but also a great deal of competence from the teacher. Assessing students' mastery of their future careers with confidence that they are studying in depth, and encouraging them to acquire comprehensive knowledge, also requires a great deal of pedagogical competence. Assessment is based on work done that requires the performance of authentic tasks using oral or written communication skills. This article discusses the

role and differences between the concepts of “Assessment” and “Evaluation” in teaching.

Keywords: *assessment, types of control, types of tests, education system, approaches, assessment, evaluation.*

KIRISH

Bugungi kunda talabalarning fanlarni o'zlashtirishi, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini baholash (assessment) ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Baholash ta'limda o'qitishning markaziy elementi hisoblanadi. Baholash bevosita o'qituvchining o'quvchi yoki talabalar bilimi borasida o'quv qarorlarini qabul qilishda foydalanadigan, ma'lumotlarni to'playdigan jarayondir. Baholar qarorlar emas, aksincha qarorlarga axborot manbalari hisoblanadi. Doimiy baholash o'quvchilarda o'rganilgan kontentni saqlashni yaxshilashga yordam beradi. Doimiy baholash muntazam fidbek bilan birlashtirilganda, u talabalarning ta'limini yaxshilaydi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonida baho, baholash tizimi va baholash tamoyillari masalasi asosiy tadqiqot ob'ekti sifatida turli davrlarda olimlar (G.Henning, A.Hughes, Ch.Coombe A.Cohen, N.Efremova, I.Kameneva, A.Xutorskiy, J.Xasanboev, K.Muradkasimova) tomonidan tadqiq etilgan. Talabalarning yozuv malakasini baholash va ushbu jarayonni yanada takomillashtirish borasida olimlar tomonidan ko'plab metod va modellar ishlab chiqilgan. Biroq, baholash tizimi kontseptsiyasi taxsil oluvchi egallagan bilim va ta'limga qo'yilgan talab asosida takomillashadi [Henning G. 2012:33].

Baholash tushunchasi dunyo hamjamiyatida keng talqin etilib, uning bir necha turlari ta'kidlanib kelinmoqda. Misol uchun, ingliz tili o'qituvchilari orasida keng tanilgan «Assessment» hamda «Evaluation» tushunchalari o'qitish ta'limotida, aksar holda bir hil, «baholash» deya tarjima qilinadi. Ingliz- o'zbek lug'atlarida ikkisi ham huddi shu tartibda tarjima qilingan [<https://keydifferences.com/difference-between-assessment-and-evaluation.html>]. Bunda birinchi turdagi baholash, ya'ni «Assessment», ta'lim jarayonida o'rganuvchilarning o'zlashtirish jadalliklarini yoki o'zlashtirish jarayonini to'g'ri yo'nalganligini nazorat qilishni ko'zda tutsa, ikkinchi turimiz, «Evaluation», oldindan belgilangan talablar asosida o'zlashtirishdan erishilgan natijalarni aniqlashni maqsad qilib oladi va o'z xarakteriga ko'ra hozirgi kunda Respublikamizda talabalarni baholashda qo'llaniladigan usullar maqsadiga

mos keladi. Manbalarda keltirilishicha «Assessment» tashhislash maqsadi bilan amalga oshiriladi, «Evaluation» esa erishilgan natijani aniqlashni ko'zlaydi.

Shundan kelib chiqib, aksar ishlarda o'z muqobil tarjimasini topmagan «Assessment» hamda «Evaluation» tushunchalari, bizning fikrimizcha, o'zbek tilida nazorat qilish hamda baholash kontseptlarini, keltirilgan ketma-ketlikda, o'zida kasb etadi. Ya'ni, «Assessment» – bu o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish, «Evaluation» – jarayondan erishilgan natijalarni baholash. Albatta, bu muqobillikni faqat mazmunan mos deb aytishimiz mumkin. Chunki, amaliyotda Respublikamiz OTMLarida qo'llanilatgan «nazorat turlari» to'laqonli «Evaluation», ya'ni bizni talqinda aytilganda baholash ko'zda tutiladi.

O'zbekiston ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan «nazorat turlari» tushunchasi respublikamizga o'tgan asrning 90chi yillarning boshlarida kirib kelgan. Lekin, o'zining kelib chiqishidan farqli o'laroq, nazorat qilish tushunchasi ta'lim tizimimizda baholash tushunchasi bilan bir qatorda qo'llanilib kelinmoqda.

X.Broven ta'kidlaganidek «Samaradorlik assesment o'tkazishdan oldingi jarayon bilan bog'liq. Bu tamoyil assesment instrumentini tuzishda ketadigan mablag', ajratilgan vaqt va baholash jarayonini o'z ichiga oladi».[Brown Ch.2002.] Olimning ilmiy ishlarida ishonchli baholash va uning vazifalari, maqsadlari yoritilgan.

Kanada davlati Alberta universiteti olimi, psixologiya fanlari doktori Leytonning fikricha, odamlar turli usulda o'rganadilar ma'lumot qabul qiladilar va turlicha yondashuvlarga egalar. Shuning uchun ham zamonaviy olimlar baholashda moslashuvchanlikka e'tibor berish kerak deb fikr yuritadilar. Buyuk Britaniyaning Glasgow universiteti olimlari Devid Nikol va Debra Diklarning fikriga ko'ra aynan joriy baholashning 7 ta asosiy tamoyili mavjud:

1. talab darajasida ishlash uchun aniqlik kiritish;
2. o'zini-o'zi baholash;
3. o'zlashtirishda doimiy ravishda ma'lumot berib borish;
4. tengdoshlari va o'qituvchi bilan muloqot qilish;
5. ijobiy motivatsiya berish;
6. kerakli joyda bo'shliqni to'ldirish;
7. jarayonni tashkillashtirishga yordam berish. [David J. 2006]

Manbalarda talabalarining malakasiga qo'yiladigan talablar turlicha tasniflangan. K.Muradkasimova tadqiqotida «Til bo'yicha bilimlarni baholash turlari va mezonlari» modulida talabaning malakasiga qo'yilgan talablar quyidagicha berilgan:

bilim va ko'nikmalarni baholashning asosiy tamoyillari;
test turlari (diagnostik, rivojlantiruvchi, nazorat testlari);
turli ta'lim yo'nalishlari xususiyatlariga mos muqobil baholash turlarini tahlil qilish;
nazorat turlari va shakllarining milliy va xalqaro tizimlari;
bilimni baholash uchun mezon belgilay olish va baholash jarayonini to'g'ri rejalashtirish bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish;
baholash mezonlarini tanqidiy tahlil qilish va baholash mezonlarini yaratish malakalarini egallash. [Muradkasimova K.Sh. 2019:77.]

XULOSA

Tadqiqotchilar talabalar bilimni baholashda quyidagi ma'lumotlardan keng foydalanishi hamda ularni ta'lim jarayoni va davrini hisobga olgan holda takomillashtirib borishi ta'kidlanadi:

- O'qituvchilar tomonidan talabaga butun o'quv darvi davomida taqdim etgan kompetensiyalarni baholash;

- Ekspert tahlillari va talabalar o'rtasida ommaviy so'rovlar o'tkazilishi natijasidagi ma'lumotlar asosida qo'lga kiritilgan kompetensiyalarning ahamiyatligi ko'effitsentlari. [Воробьев Е.В. 2016:294]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Henning G. Twenty common testing mistakes for EFL teachers to avoid. English Teaching Forum 2012. №3.
2. <https://keydifferences.com/difference-between-assessment-and-evaluation.html>
3. Brown Ch. Principles of language Assessment. –2002.
4. David J. Nicol & Debra Macfarlane-Dick (2006): Formative assessment and self-regulated learning.
5. Muradkasimova K.SH. Ingliz tilini o'qitishda talabalar ko'nikma va malakalarini baholash xususiyatlari: Ped. fan. bo'y. fal. d-ri (PhD) diss. –T.: 2019. – B.77.
6. Воробьев Е.В. Принципы оценки профессиональной компетентности студента // Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 8-2. – С. 294-297.
7. Coombe, Ch. (2013). A practical guide to evaluating English language learners. University of Michigan Press.
8. Khasanova G., Nikadambaeva K., Kenjaboev S. THE ROLE OF

EDUCATION SYSTEM IN HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT //East European Scientific Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 2 (66). – С. 48-51.

9. Khasanova, Gulsanam Khusanovna MAIN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF EDUCATION AND PROFESSIONAL TRAINING IN THE WORLD // ORIENS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/main-trends-in-the-development-of-education-and-professional-training-in-the-world> (дата обращения: 05.01.2022).

10. Хашимова С. On some features of teaching foreign language for students of non-philological areas at the initial stage. – 2019. – Евразийское Научное Объединение. – С. 334-338.

11. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10

12. Nasirova, S. A. (2020). CONCEPTS OF 中国 梦想" CHINESE DREAM" AND 类 命运 共同" COMMUNITY OF THE ONE FATE OF HUMANITY"—A LINGUISTIC AREA. *Journal of Central Asian Social Studies*, 1(01), 05-14.

13. Abdullaevna, N. S. (2020). Lexical-semantic and cognitive specifics of political discourse (based on Si Jinping's speeches). *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1086-1092.